Hamkorlik yo‘nalishlari muhokama qilindi

// 04.07.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/hamkorlik-yo-nalishlari-muhokama-qilindi



“O‘zkimyosanoat” AJda Innovatsiya va yangi texnologiyalarni joriy etish bo‘limi vakillari, Osiyo taraqqiyot bankining Janubiy Koreyalik mutaxassislari hamda “Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti” MCHJ mutasaddilari ishtirokida uchrashuv o‘tkazildi.

Unda qator masalalar yuzasidan fikr almashildi.



Xususan, Toshkent viloyati kimyo sanoatining bugungi holati va amalga oshirilishi rejalashtirilgan istiqboldagi loyihalar hamda “Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti” MCHJning faoliyat yo‘nalishi va roli haqida so‘z bordi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston kimyo sanoatining xususiyatlari, ixtisoslashgan yo‘nalishlari va sohaning raqobatbardoshligini baholash masalalariga e’tibor qaratildi.



Tadqiqot va texnologiyalar natijalarini tijoratlashtirish tendensiyalari va texnologiyalar transferi ofislarining roli, mamlakatimizda shu jumladan, Toshkent viloyatida kimyo sanoatini rivojlantirish ishtirokchilar diqqat markazida bo‘ldi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati